“ASOSIY VOSITALAR” BHXS 16 STANDARTI BO`YICHA ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI ANIQLASH VA UNING BAHOLASHNING ASOSLARI

Qoxxorova Mohigul Abdurashid qizi
Toshkent Moliya Instituti, 1-kurs magistr,
Ta`lim yo`nalishi (mutaxassislik):
70410101 - Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo`yicha)
mohigul.qahhorova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada buxgalteriya hisobining xalqaro standarti maqsadi, qo`llash doirasi, asosiy vositalar, asosiy vositalarning iqtisodiy mohiyati, xalqaro standartning qo`llashning maqsadi va xalqaro talablar asosida yuritilishi haqida to`xtalib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** asosiy vositalar, buxgalteriya, moliyaviy hisobning xalqaro standarti, qonunchilik, boshlang`ich qiymat, joriy qiymat, qoldiq qiymat, tugatish qiymati, tiklash qiymati

ABSTRACT

This article focuses on the purpose of the international standard of accounting, scope of application, fixed assets, economic nature of fixed assets, the purpose of applying the international standard and its implementation based on international requirements.

Key words: fixed assets, accounting, international standard of financial accounting, legislation, initial value, current value, residual value, liquidation value, recovery value

KIRISH

Mamlakatimiz globallashuv sharoitida global hisob siyosatini yuritish va standartlarini qabul qilish bugungi kun talabi hisoblanadi. Zero hisob siyosati, shaffofligi har qanday axborot foydalanuvchisiga tushunarli va ma’lumot taqdim etiluvchiga ya’ni potensial investorga malakali, moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. Oldingi yillarda olib borilgan yopiq iqtisodiyot sharoitidan voz kechgan holda ochiq iqtisodiyot sharoitiga o’tishimiz, ochiq, shaffof, yangicha iqtisodiyotni tashkil etishga kirishganimiz bizning bugungi kundagi yutuqlarimizdan hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda asosiy vositalarni muntazam ravishda modernizasiya qilish, uning samaradorligini oshirish uchun doimiy ravishda investisiyalar kiritish talablaridan biri moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritish va ulardan foydalanishdir. Ayniqsa asosiy vositalarni muntazam yangilab turishda uning hisobini

buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS) 16 – sonli “Asosiy vositalar” nomli standart asosida yuritish qulay investision muhit yaratadi. Chunki ushbu standart asosida hisob siyosati yuritilishi investorlar uchun qulay va ishonchli moliyaviy hisobotlar taqdim etilishi natijasida asosiy vositalarga investisiya kiritish imkoniyatini yaratadi. Xalqaro amaliyotda asosiy vositalar hisobini takomillashtirish va uni BHXS 16 - sonli “Asosiy vositalar” standartiga muvofiqlashtirish, asosiy vositalar auditini tashkil etish va uni takomillashtirish maqsadida dunyoning ko‘plab mamlakatlarida doimiy ravishda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanadada US GAAP, UK GAAP standartlari asosida asosiy vositalar amortizasiyasi, qayta baholash va ularni o‘zaro almashtirish qiymatlarini aniqlash va buxgalteriyada aks ettirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Lekin ushbu sohada yechimini kutayotgan masalalar juda ko‘pligi va jahondagi tajriba hamda ilmiy yutuqlarni o‘rganish asosida asosiy vositalarni baholash, ularning holati va tarkibini o‘rganish natijasida aktivlarni boshqarish bo‘yicha to‘g‘ri va aniq qarorlar qabul qilish, asosiy vositalar auditi hamda uning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borish zarurati vujudga kelmoqda.

Ushbu masalalarning kun tartibiga qo‘yilishi MHXSlari asosida moliyaviy hisobot tuzish metodologiyasini takomillashtirishni taqozo etadi. Bunga moliyaviy hisobotni MHXSlari asosida transformatsiyalash orqali erishish mumkin. Bugungi kunda transformatsiya masalalari bo‘yicha adabiyotlar va ilmiy maqolalar ham yetarli emas. Shu bois, moliyaviy hisobot amaliyotga joriy qilish masalasi kun tartibida turgan dolzarb mavzu hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Asosiy vositalar buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalarining ilmiy-nazariy, uslubiy jihatlari xorijiy iqtisodchi olimlardan I.Melnikov, Ye.Sivkov, T.Yu.Sergeeva, Yu.Tryashenko, Yu.A.Babaev, A.M.Petrov, X.P.Raymond, A.A. Dodonov va boshqa ko’plab olimlar ning ilmiy asarlarida o’z aksini topgan. Mahalliy iqtisodchi olimlardan A.A.Karimov, D.Kudbiev, K.B.Urazov, S.N.Tashnazarov, B.O.Bolibekov, D.M.Matkarimov, Q.X. Xatamov va boshqalarning ilmiy asarlarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini takomillashtirish bo’yicha izlanishlar olib borilgan hamda bu bo’yicha nazariy-uslubiy masalalar yoritib berilgan.

Maqolani yozishda ilmiy abstraktsiyalash, induktsiya, deduktsiya, tizimli yondashish, qiyosiy tahlil va sintez, iqtisodiy-matematik modellashtirish va guruhlash, monografik kuzatuv kabi usullardan foydalanilgan.

NATIJALAR

Jahon amaliyotida olib borilayotgan tadqiqotlarda asosiy vositalarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy qilishda yuzaga chiquvchi muammolar, ularda asosiy vositalar hisobining turlicha yuritilishi, asosiy vositalar to’g’risidagi ma’lumotlarning bir xil andoza talablari doirasida emasligi, asosiy vositalar obyekti

sifatida tan olinuvchi aktivlar iqtisodiy mazmunining turlicha talqin etilishi kabi muammolar keng o'rganilmoqda. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobni yuritish va asosiy vositalarni to'g'ri hisobga olish bo'yicha uzluksiz tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda asosiy vositalarni tasniflash, tan olish, baholash, ularga eskirish hisoblash, tahlil qilish uslubiyotini tashkil etishni ta'minlashning afzalliklari belgilab berilgan. Shu sababli dunyo miqyosida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish asosida asosiy vositalar hisobini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ustuvor yo'nalishlar etib belgilangan.

Xalqaro amaliyotda asosiy vositalarni muntazam ravishda modernizasiya qilish, uning samaradorligini oshirish uchun doimiy ravishda investisiyalar kiritish talablaridan biri moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritish va ulardan foydalanishdir. Ayniqsa asosiy vositalarni muntazam yangilab turishda uning hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (BHXS) 16 – sonli "Asosiy vositalar" nomli standart asosida yuritish qulay investision muhit yaratadi. Chunki ushbu standart asosida hisob siyosati yuritilishi investorlar uchun qulay va ishonchli moliyaviy hisobotlar taqdim etilishi natijasida asosiy vositalarga investisiya kiritish imkoniyatini yaratadi.

Muayyan obyektning ma'lum bir guruhga muvofiqligi ma'lum texnik hujjatlarga muvofiq belgilanadi. Asosiy vositalarni to'g'ri hisobga olishning zarur jihati korxonada ushbu obyektlarni normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq baholashning bir xilligi hisoblanadi.

"Asosiy vositalar" nomli 5-son BHMSga binoan asosiy vositalar quyidagi baholarda baholanadi:

- boshlang'ich qiymat
- joriy qiymat
- qoldiq (balans) qiymat
- tugatish qiymati
- tiklash qiymati

➢ Boshlang'ich qiymat- asosiy vositani ishchi holatga keltirish uchun qilingan jami xarajatlardir yoki ularni barpo etish (qurish, o'stirish, yetishtirish, yasash) yoki sotib olish bo'yicha amalda qilingan xarajatlar qiymatidir. Boshlang'ich (dastlabki) qiymat aktivni xarid qilishda haqiqatda to'langan pul mablag'lari yoki uni barpo etishda amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlardir. Xarid qilishning haqiqiy qiymati asosiy vositani xarid qilish va uni ishlatish uchun tayyor holga keltirishda qilingan barcha xarajatlarni, ya'ni: xarid narxi, yuridik yig'imlar va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi. "Asosiy vositalar" nomli 5-son BHMSga binoan asosiy vositalarni xarid qilish

evaziga sotib olingan asosiy vositalar obyektining boshlang‘ich qiymati quyidagi xarajatlardan tashkil topadi:

✓ asosiy vositalarni yetkazib beruvchilarga hamda shartnoma bo‘yicha pudratchilarga to‘lanadigan summalar;

✓ asosiy vositalar obyektiga doir huquqni sotib olish munosabati bilan amalga oshirilgan ro‘yxatdan o‘tkazish yig‘imlari, davlat bojlari va boshqa shunga o‘xshash to‘lovlar;

✓ bojxona bojlari va yig‘imlari;

✓ asosiy vositalar obyektlarini sotib olish (barpo qilish) munosabati bilan soliqlar va yig‘imlar summalari (agar ular qoplanmasa);

✓ asosiy vositalar obyektlarini sotib olish (barpo qilish) bilan bog‘liq informatsiya va maslahat xizmatlari uchun to‘langan summalar;

✓ asosiy vositalar obyektlarini yetkazib berish (barpo qilish) xatarini sug‘urtalash bo‘yicha xarajatlar;

✓ asosiy vositalar obyektini sotgan vositachilarga to‘lanadigan haqlar;

✓ asosiy vositalarni o‘rnatish, montaj qilish, sozlash va ishga tushirishga oid xarajatlar;

✓ aktivdan mo‘ljal bo‘yicha foydalanish uchun uni ishchi holatga keltirish bilan bevosita bog‘liq boshqa xarajatlar.

Kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni to‘lashga doir xarajatlar qarzga olingan sarmoya hisobidan butkul yoki qisman sotib olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatiga kiritilmaydi.

Asosiy vositalar asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlarda quyidagi obyektlar uchun aniqlanadigan boshlang‘ich qiymatda hisobga olinadi:

❖ korxonaning ustav kapitaliga ta’sischilar tomonidan ularning ulushi hisobidan kiritilgan obyektlar tomonlarning kelishuviga asosan;

❖ korxonaning o‘zida tayyorlangan shuningdek, to‘lov evaziga boshqa korxona va shaxslardan sotib olingan obyektlar ushbu obyektlarni (inshoot, qurish, tiklash) barpo etishga ketgan haqiqiy xarajatlardan kelib chiqib yoki ushbu obyektlarni xarid qilishda, to‘langan va qoplanmaydigan soliqlar (boshqa majburiy to‘lovlar) shuningdek, yetkazib berish, yig‘ish, o‘rnatish, ishga tushirish va ushbu aktivni ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog‘liq boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda; (O‘zR AV 25.05.2009 y. 1181-2-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zR MV Buyrug‘i tahriridagi kichik band);

❖ boshqa korxona va shaxslardan tekinga olingan shuningdek, hukumat idoralari tomonidan subsidiya ko‘rinishida olinganlari qabul qilish sanadagi bozor bahosi yoki qabul qilish, topshirish hujjatlarida ko‘rsatilgan qiymat bo‘yicha.

Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati faqat qayta qurilganda, ta’mirlanganda va qisman tugatilganda hamda qayta baholangan hollarda o‘zgartirilishi mumkin.

- Joriy qiymat – asosiy vositalarning muayyan bir vaqtda amaldagi bozor baholari bo'yicha qiymati yoki aktivlarni xabardor manfaatdor tomondan o'rtasida almashtirilishi mumkin bo'lgan summasidir.
- Qoldiq (balans) qiymat– asosiy vositalarning dastlabki (qayta tiklangan) yoki joriy qiymatidan to'plangan amortizasiya chiqarib tashlangan summasidir.
- Tugatish qiymati – asosiy vositalarni hisobdan chiqarish vaqtida ko'zda tutilgan qiymati, bundan asosiy vositani tugatish xarajatlari ayriladi.
- Tiklash qiymati – dastlabki qiymatdan tugatish qiymatini chegirilganidir.

16-sonli BHXS (IAS) "Asosiy vositalar" deb nomlangan Buxgalteriya hisobining xalqaro standartida asosiy vositalarni baholashda quyidagicha qiymatlaridan foydalanadi:

Balans qiymati – bu har qanday jamg'arilgan eskirish va yig'ilgan qadrsizlanish bo'yicha zararlar chegirib tashlanganidan so'ng aktivning tan olinadigan summasidir.

Tannarx – bu aktivni uning xaridi yoki qurilishi paytida sotib olish uchun to'langan pul mablag'i yoki pul mablag'i ekvivalentidagi qiymat yoki boshqa turdagi uning evaziga berilgan tovonning haqqoniy qiymati yoki, tegishli hollarda, boshqa BHXSlarning, masalan BHXS 2 "Aksiyaga asoslangan to'lov"ning aniq talablariga muvofiq ushbu aktivning dastlabki tan olinishidagi qiymatdir.

Eskirish hisoblanadigan qiymat – bu aktivning tugatish qiymati chegirilgandagi tannnarxi yoki tannarx o'rniga aks ettiriladigan boshqa qiymatdir.

Eskirish – bu aktivning eskirish hisoblanadigan qiymatini uning foydali xizmat muddati davomida sistematik tarzda xarajatlarga olib borishdir.

Tadbirkorlik subyektiga xos qiymat - bu tadbirkorlik subyekti tomonidan aktivdan davomiy foydalanishidan va foydali xizmat muddati oxirida balansdan chiqarishdan yoki majburiyat so'ndirilganida kutiladigan pul oqimlarining keltirilgan qiymatidir.

Joriy qiymat - bu baholash sanasida bozor ishtirokchilari o'rtasidagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishda olinishi mumkin bo'lgan yoki majburiyatni o'tkazishda to'lanishi mumkin bo'lgan narxdir. (MHXS 13 "Haqqoniy qiymatni baholash").

Qoplanadigan qiymat – bu aktivning quyidagi qiymatlaridan yuqorirog'i: sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymati va uning foydalanishdagi qiymati.

Aktivning tugatish qiymati - bu aktivning chiqib ketishi bo'yicha baholangan xarajatlar chegirilgan holda, tadbirkorlik subyekti ayni paytda xuddi aktiv foydali xizmat muddati oxirida kutilgan muddati va holatida bo'lganidek aktivning chiqib ketishidan oladigan baholangan qiymatidir.

"Asosiy vositalar" nomli 5-son BHMSga binoan asosiy vositalarni tashkilot tekinga olgan asosiy vositalarning dastlabki qiymati ekspert yo'li bilan bozor narxida baholangan qiymat bo'yicha tan olinadi. Tekinga olingan asosiy vositani kirim qilingan

sanada amal qilgan narx asosida joriy bozor qiymati shakllantiriladi. Amaldagi narx to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham hujjatlar va ekspert yo‘li bilan tasdiqlanishi kerak.

Sotish qiymati - asosiy vositalarni bitim paytida manfaatdor taraflar o‘rtasida ayirboshlash mumkin bo‘lgan summadir.

Asosiy vositani pulga xarid qilinsa, uning qiymati shartnomada ikkilamchi bozorda faol ishlayotgan shu singari aktivga aniqlangan bozor narxi bo‘yicha ko‘rsatilishi mumkin.

Asosiy vositani xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘zi tomonidan yaratilgan va uni yaratish chiqimlarini aniq belgilash mumkin bo‘lgan hollarda asosiy vosita haqiqiy tannarx bo‘yicha aks ettiriladi.

Korxona ustav sarmoyasiga ulush hisobidan olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati deb, agar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida boshqa holat nazarda tutilmagan bo‘lsa, korxona muassislari (ishtirokchilari) tomonidan kelishilgan ularning puldagi bahosi tan olinadi.

Korxona tomonidan tekinga (hadya shartnomasi bo‘yicha) olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati deb 5-sonli BHMS “Asosiy vositalar” standartining 11-bandida nazarda tutilgan xarajatlarni hisobga olgan holda buxgalteriya hisobiga qabul qilingan sanadagi ularning joriy qiymati tan olinadi.

Tayyor mahsulot tarkibidan asosiy vositalarga o‘tkazilgan obyektlarning boshlang‘ich qiymati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga (O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to‘plami, 1999 y., 2-son, 9-modda) muvofiq belgilanadigan ularning ishlab chiqarish tannarxiga teng bo‘ladi.

Tovar-moddiy zaxiralar tarkibidan (tayyor mahsulotlardan tashqari) asosiy vositalarga o‘tkazilgan ob’ektlarning boshlang‘ich qiymati O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 27 avgustda 44-son bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti 4-son BHMS “Tovar-moddiy zaxiralar”ga (ro‘yxat raqami 486, 1998 yil 28 avgust, Me’yoriy hujjatlar axborotnomasi, 1999 y., 5-son) muvofiq belgilanadigan ularning balans qiymatiga teng bo‘ladi.

Xo`jalik yurituvchi subyektlarda asosiy vositalar buxgalteriya hisobini to‘g‘ri tashkil etish uchun birinchi galda ularni hisobga olish tartib-taomillarini korxonaning hisob siyosatida batafsil aks ettirish kerak. Korxonaning hisob siyosatini ishlab chiqish jarayonida buxgalteriya hisobi elementlarini hisob jarayonlarini tashkil etishda asosiy e’tibor ma’lumotlarning ishonchliligi, shaffofligi va asosiy urg‘u investorlar uchun tushunarliligini ta’minlashga qaratilishi zarur. Shu maqsadda hisob siyosatini ishlab chiqishga MHXSlari talablaridan kelib chiqib yondashish tavsiya etiladi. Chunki, xalqaro

standartlarning birlamchi talabi moliyaviy hisobotlarda taqdim etiladigan ma’lumotlarning investor yoki moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar uchun tushunarli bo‘lishidir.

Asosiy vositalarning hisob jarayonini takomillashtirish uchun, avvalo, uning tannarxi yoki boshqacha aytganda dastlabki qiymatini to‘g‘ri shakllantirish uchun zarur shartlarni belgilanishi kerak. Masalan, asosiy vositalar dastlabki qiymatini shakllantrishda milliy standartlarda asosiy vositalarni demontaj xarajatlarining diskontlangan qiymatlarini kirim qilinishi nazarda tutilmagan. Mazkur qiymatlar ham xalqaro standartlar talablari asosida dastlabki qiymatga qo‘shilishi zarur. Asosiy vositalarni tasniflashda ularning turlariga emas, asosiy e`tibor ulardan foydalanilish maqsadlariga qaratilishi lozim. Shunda asosiy vositalar tarkibidan investitsion mulklarni ajratish qulay bo‘ladi. Investitsion mulklar korxonaning ishlab chiqarish yoki boshqaruv maqsadlarida foydalanilmaydi, balki ular vaqtinchalik foydalanishga berish evaziga korxonaga iqtisodiy naf keltirishi uchun saqlanadi. Bu holda tasniflanish korxona foydasi manbalarini tahlil qilishda obyektiv ma’lumotlarni olish uchun imkon beradi. Asosiy vositalarni balansda haqqoniy qiymatlarda aks ettirib borish, qayta baholash natijalarini muvofiqlik tamoyili bo‘yicha asosiy vositaning xizmat muddatiga mutanosib shaklda taqsimlanmagan foydaga o‘tkazib borish ham korxonanang investitsion jozibadorligini oshiradi.

Asosiy vositalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning batafsilligi va butligini ta’minlash maqsadida inventar kartochkalar shaklidagi “Asosiy vositalar” daftari tashkil etish tavsiya etiladi. Natijada asosiy vositalar to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlar bir daftarda jamlanadi. Xo`jalik yurituvchi subyektlarda asosiy vositalar turlari va sonining ko‘p emasligi bunga imkon beradi.

Asosiy vositalarga tegishli bo‘lgan birlamchi hujjatlar rekvizitlarini ham zamon talablaridan kelib chiqib yangilash va korxona asosiy vositalari xususiyatlari inobatga olgan holda ishlab chiqish zarur.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga ko‘ra asosiy vositalarni tan olish masalasi muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan MHXSning 16-sonli “Asosiy vositalar” standartiga ko‘ra asosiy vositalar tan olinishi quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- ❖ aktiv bilan bog‘liq bo‘lgan kelgusi iqtisodiy foyda korxona tomonidan olinishi ehtimoli yuqori darajada deb tasdiqlanganda;
- ❖ korxona uchun aktivning tannarxi ishonchli baholanishi mumkin bo‘lganda.

Demak, asosiy vositalarni ushbu ikki shartga javob berishiga qarab tan olinishi amalga oshiriladi. Shu jumladan, asosiy vosita tan olishning birinchi shartiga javob bersa, korxona dastlabki tan olinish vaqtiga qarab aktiv bilan bog‘liq kelgusi iqtisodiy foyda olish ehtimolini belgilaydi. Ushbu ehtimollik darajasi korxona tomonidan aktiv bilan bog‘liq manfaat va risklarni olishi aniq bo‘lishini talab etadi.

Asosiy vositalarni hisobga olishdagi asosiy qoidalar ularni aktivlar deb e'tirof etish paytini aniqlash, bu aktivlarga nisbatan qo'llanilishi lozim bo'lgan ularni balans qiymati va amortizatsiya me'yorini aniqlash, shuningdek, asosiy vositalarning balans qiymatidagi boshqa o'zgarishlarni aniqlash hamda hisobga olish, amortizatsiya ajratmalarini hisoblab chiqarish va ularni hisobdan chiqarishdan iborat.

Xalqaro standartda uzoq muddatli aktivlarning likvidlilik darajasi past deb hisoblanadi, bu aktivlar ma'lum ma'noda ham kam foyda keltiruvchi hisoblanadi. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari albatta umumiy tarzda tuzilgan, uni har bir mamlakat o'z milliy standartlariga moslashtiradi. Milliy hisob tizimida asosiy vositalar moddasi ham xalqaro stantdartlar asosida tuzilgan, ba'zi qismlari milliylashtirilgan.

Asosiy vositalar hisobida to'rt asosiy masala mavjud bo'lishi lozimligi standartda ko'rsatilgan, ular quyidagilar:

- ✓ asosiy vositalarning dastlabki bahosi;
- ✓ asosiy vosita qiymatini kelgusi davrlarga taqsimlash uchun aniqlangan eskirish foizi;
- ✓ asosiy vositalar olingandan keyin qiymatining o'zgarishi, shu jumladan, qiymati ko'payishi, yoki ehtimoliy kamayishi, kamayishining oqibatlarini schotlarda qanday qilib aks ettirilishi;
- ✓ aktivlarning keyinchalik hisobdan chiqarilishini ro'yxatga olish.

Ehtiyot qismlar, yordamchi va ta'mirlovchi jihozlar kabi moddalar asosiy vositalar ta'rifiga mos kelganida ushbu BHXSga muvofiq tan olinadi. Aks hollarda bunday moddalar tovar-moddiy zaxiralar sifatida tasniflanadi.

Ushbu standart tan olish uchun o'lchov birligini, ya'ni asosiy vosita obyekti nimadan tashkil topishini belgilab bermaydi. Shuning uchun, tadbirkorlik subyektining o'ziga xos shart-sharoitlarida tan olish mezonlarini qo'llash uchun mulohaza qilish talab etiladi. Qoliplar, dastaklar va muhrlar kabi alohida muhim bo'lmagan moddalarni birlashtirish va tan olish mezonlarini ushbu birlashtirilgan qiymatga nisbatan qo'llash o'rinli bo'lishi mumkin.

Korxona barcha asosiy vositalar bilan bog'liq xarajatlarni ularning kelib chiqish paytiga qarab ushbu tan olish mezonlari asosida baholaydi. Aktivni tan olish mezonlariga mos keladigan asosiy vosita obyekti tannarx bo'yicha baholanishi lozim.

Asosiy vositaning tannarxi quyidagilardan tashkil topadi:

- o savdo chegirmalarini va imtiyozlarini chegirgan holda, uning xarid narxi, jumladan import bojlari va sotib olish bilan bog'liq qoplanmaydigan soliqlar.
- o aktivni undan tadbirkorlik subyektining rahbariyati tomonidan ko'zlangan holda foydalanish uchun zarur bo'lgan joy va holatiga olib kelish bilan bog'liq bevosita xarajatlar.

o tadbirkorlik subyektining tovar-moddiy zaxiralar yaratish bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda qandaydir obyektni sotib olish yoki undan qandaydir davr mobaynida foydalanish paytida o'z zimmasiga oladigan asosiy vosita obyektini demontaj va yo'q qilish hamda u egallagan yer uchastkasida tabiiy resurslarni qayta tiklash xarajatlarining boshlang'ich bahosi aktivni demontaj qilish va olib tashlash hamda u joylashgan maydondagi tabiiy resurslarni qayta tiklash bilan bog'liq xarajatlarning daslabki baholanishi, agar tadbirkorlik subyekti bular bo'yicha majburiyatga aktiv sotib olinganida yoki undan ma'lum davr mobaynida tovar-moddiy qimmatliklarni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda foydalanish natijasida ega bo'lsa.

Asosiy vositalar obyektlari xavfsizlik yoki atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlarida sotib olinishi mumkin. Bu kabi asosiy vositalarni sotib olish mavjud bo'lgan qandaydir asosiy vosita obyektidan olinadigan kelgusi iqtisodiy nafni bevosita oshirmasa-da, tadbirkorlik subyekti boshqa aktivlaridan kelgusida iqtisodiy naf olishi uchun zarur bo'lishi mumkin. Bunday asosiy vositalar obyektlari aktiv sifatida tan olinadi, chunki ular yordamida tadbirkorlik subyekti tomonidan ular bilan bog'liq bo'lgan aktivlardan kelgusida olinadigan iqtisodiy naf bunday obyektlar sotib olinmaganida olinadigan nafdan ko'ra ko'proq bo'ladi. Masalan, kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxona xavfli kimyoviy moddalarni ishlab chiqarish va saqlash bilan bog'liq ekologik talablarga rioya etish maqsadida yangi kimyoviy moddalar bilan ishlash texnologiyalarini jalb etishi mumkin; tegishli yangi texnologiyalar aktiv sifatida tan olinadi, chunki ularsiz tadbirkorlik subyekti kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqara va sota olmaydi. Biroq, bunday aktiv va u bilan bog'liq bo'lgan aktivlarning balans qiymati qadrsizlanganligi BHXS 36-sonli "Aktivlarning qadrsizlanishi"ga muvofiq tekshiriladi.

Ayrim kompaniyalar ijtimoiy obyektlar tarkibida asosiy vositalari mavjud. Masalan, uy joylar, bog'cha va shu kabilar, xodimlarni pulsiz ko'rinishda rag'batlantirishni ifodalaydi va natijada, xodimlarga pullik xarajatlarni kamayishiga sabab bo'ladi.

Tan olish mezonlariga ko'ra, korxona asosiy vosita obyektining balans qiymatiga obyektning kundalik xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarini kiritmaydi. Bunday xarajatlar kelib chiqish paytida foyda yoki zarar tarkibida tan olinadi. Kundalik xizmat ko'rsatish xarajatlari asosan mehnat haqi va materiallardan tashkil topadi, hamda o'z ichiga mayda ehtiyot qismlar qiymatini ham olishi mumkin. Bu kabi xarajatlarning maqsadi ko'pincha asosiy vositalar obyektiga "joriy xizmat ko'rsatish va ta'mirlash" sifatida izohlanadi.

Ayrim asosiy vositalar obyektlarining qismlari muntazam ravishda almashtirilishi talab etilishi mumkin. Masalan, pechning futerovkasi ma'lum ishlash soatlari o'tganidan so'ng almashtirilishi kerak bo'lishi mumkin, samolyotlardagi

o’rindiqlar va oshxona kabi asbob-uskunalar samolyotning foydali xizmat muddati davomida bir necha marta almashtirilishi mumkin. Asosiy vositalarning obyektlari binoning ichki devorlarini almashtirish kabi almashtirishlarni kamroq takrorlash yoki takrorlanmaydigan qilib almashtirish maqsadida sotib olinishi mumkin. 7 banddagi tan olish mezonlariga ko’ra, tadbirkorlik subyekti asosiy vositaning balans qiymatida uning bir qismini almashtirish bo’yicha xarajatlarni ushbu xarajatlar amalga oshirilgan paytda tan olishi kerak, agar bunda xarajatlar tan olish mezonlariga mos kelsa. Almashtirilgan qismlarning balans qiymati ushbu standartdagi hisobdan chiqarish qoidalariga muvofiq hisobdan chiqariladi.

Asosiy vositalar obyektining ayrim qismlarini almashtirilishi yoki almashtirilmasligidan qat’i nazar, nuqsonlar paydo bo’lganligini aniqlash uchun muntazam ravishda katta ko’lamdagi texnik ko’riklarini o’tkazish shu obyektdan (masalan samolyotdan) foydalanishni davom etishning shartlaridan biri bo’lishi mumkin. Har bir katta ko’lamdagi texnik ko’rik o’tkazilganda, u bo’yicha xarajatlar tan olish mezonlari bajarilganda asosiy vositalar obyektining balans qiymatida qisman almashtirish sifatida tan olinadi. Har qanday oldingi texnik ko’rik bo’yicha xarajatlarning aktivning balans qiymatidagi qoldig’i (ehtiyot qismlardan tashqari) hisobdan chiqariladi. Bunday hisobdan chiqarish oldingi tekshiruv xarajatlari obyekt sotib olinishi yoki qurilishi paytidagi operatsiyada tan olinganligi yoki olinmaganligidan qat’i nazar amalga oshiriladi. Zarur bo’lganda, obyekt sotib olinishi yoki qurilishi paytidagi balans qiymatiga qo’shilgan texnik ko’rik xarajatlarini aniqlashda shu kabi kelgusi tekshiruv xarajatlarning baholangan summasidan foydalanish mumkin.

Asosiy vositaning tannarxi quyidagilardan tashkil topadi:

❖ savdo chegirmalari va imtiyozlarini chegirgan holda, uning xarid narxi, jumladan import bojlari va sotib olish bilan bog’liq qoplanmaydigan soliqlar.

❖ aktivni undan tadbirkorlik subyektining rahbariyati tomonidan ko’zlangan holda foydalanish uchun zarur bo’lgan joy va holatiga olib kelish bilan bog’liq bevosita xarajatlar.

❖ asosiy vosita obyektini demontaj qilish va olib tashlash hamda u joylashgan joydagi tabiiy resurslarni qayta tiklash xarajatlarining boshlang’ich bahosi. Tadbirkorlik subyekti asosiy vosita sotib olingan paytda yoki undan ma’lum davr mobaynida tovar-moddiy qimmatliklarni ishlab chiqarish bilan bog’liq bo’lmagan maqsadlarda foydalanish oqibatida ushbu xarajatlar bo’yicha majburiyatni o’z zimmasiga oladi.

Quyidagilar bevosita xarajatlarga misollardir:

➢ asosiy vosita obyektini barpo etish (qurish) yoki sotib olish natijasida bevosita hosil bo’ladigan xodimlarga haq to’lash xarajatlari (BHXS 19 “Xodimlarning daromadlari” da keltirilganidek);

➢ joyni tayyorlash xarajatlari;

➢ yetkazib berish va ortish-tushirish bilan bog'liq boshlang'ich xarajatlar;

➢ o'rnatish va montaj bo'yicha xarajatlar;

➢ aktivning to'g'ri ishlashini sinab ko'rish xarajatlaridan aktivni tegishli joyga va holatga keltirish paytida ishlab chiqarilgan mahsulotni (uskunalarni sinovdan o'tkazishda ishlab chiqarilgan mahsulotlar kabi) sotishdan olingan sof tushumning ayirmasi;

➢ malakali xizmatlar uchun haqlar.

Tadbirkorlik subyekti obyektdan ma'lum bir davr mobaynida tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarish uchun foydalanishi oqibatida paydo bo'ladigan obyektni demontaj qilish va olib tashlash hamda u egallagan yer maydonida tabiiy resurslarni qayta tiklash majburiyatlari bo'yicha xarajatlarga nisbatan BHXS 2-sonli "Tovar-moddiy zaxiralar"ni qo'llaydi. BHXS 2-sonli yoki BHXS 16-sonli "Asosiy vositalar"ga mos ravishda hisoblanadigan xarajatlar bo'yicha majburiyatlar BHXS 37-sonli "Rezervlar, shartli majburiyatlar va shartli aktivlar"ga mos ravishda tan olinadi va baholanadi.

Asosiy vositalar obyektiga kirmaydigan xarajatlarga quyidagilar misol bo'la oladi:

❖ yangi ishlab chiqarish obyektini tashkil etish xarajatlari;

❖ yangi mahsulot yoki xizmat turini tatbiq etish bilan bog'liq xarajatlar (shu jumladan, reklama va marketing faoliyati xarajatlari);

❖ tijoratni yangi joyga yoki mijozlarning yangi toifasiga moslashtirish bilan bog'liq xarajatlar (shu jumladan, xodimlarni qayta tayyorlash xarajatlari);

❖ ma'muriy va boshqa umumiy ustama xarajatlar.

Asosiy vositalar obyekti undan tadbirkorlik subyekti rahbariyati tomonidan ko'zlangan holda foydalanish uchun zarur bo'lgan joy va holatiga keltirilganida bu obyektning balans qiymatiga qo'shiladigan xarajatlarning tan olinishi to'xtatiladi. Shu bois, obyektdan foydalanish yoki uni boshqa joyga ko'chirishda hosil bo'ladigan xarajatlar shu obyektning balans qiymatiga kiritilmaydi. Masalan, quyidagi xarajatlar asosiy vositalar obyektining balans qiymatiga kiritilmaydi:

- rahbariyat tomonidan ko'zlangan holda foydalanish uchun tayyor bo'lgan obyekt haligacha foydalanishga topshirilmagan yoki to'liq quvvatidan past darajada foydalanilganda hosil bo'lgan xarajatlar;

- birlamchi operatsion zararlar, masalan obyekt yordamida ishlab chiqarilgan mahsulotga talab hosil bo'lishi davridagilar kabi;

- tadbirkorlik subyekti quvvatlarini qisman yoki to'la qayta ko'chirish yoki qayta tashkil etish xarajatlari.

Ayrim operatsiyalar asosiy vositalar obyektini qurish yoki barpo etish bilan bog'liq bo'ladi, ammo bu obyektni undan tadbirkorlik subyekti rahbariyati tomonidan

ko’zlangan holda foydalanish uchun zarur bo’lgan joy va holatiga keltirish uchun zarur bo’lmaydi. Bu yordamchi operatsiyalar qurilish yoki barpo etish ishlari davomida yoki undan oldin ro’y berishi mumkin. Masalan, qurilish maydonidan qurilish ishlari boshlanishidan oldin avtostoyanka sifatida foydalanishdan foyda olinishi mumkin. Yordamchi operatsiyalar obyektni rahbariyat tomonidan ko’zlangan holda foydalanish uchun zarur bo’lgan joy va holatiga keltirish uchun zarur bo’lmaganligi sababli, yordamchi operatsiyalar bilan bog’liq daromad va xarajatlar foyda yoki zararning tarkibida tan olinadi va daromad yoki xarajatlarning tegishli guruhlariga kiritiladi.

Xo’jalik usulida qurilgan aktivning tannarxi xuddi sotib olingan aktiv tannarxini aniqlash tamoyillarini qo’llash orqali aniqlanadi. MHXS 2 standartiga ko`ra agar tadbirkorlik subyekti aktivlarni o’zining asosiy faoliyati doirasida sotish uchun barpo etsa, aktivning tannarxi sotish uchun qurilgan aktiv bilan bir xil bo’ladi. Shu sababli, bu kabi tannarxlarni aniqlashda har qanday ichki foyda ayirib tashlanadi. Shunga o’xshash, aktivni xo’jalik usulida qurishda me’yoridan ortiq sarflangan material, mehnat, yoki boshqa resurslar xarajati aktivning tannarxiga kiritilmaydi. BHXS 23 “Qarzlar bo’yicha xarajatlar” foizlarni xo’jalik usulida qurilgan asosiy vositalar balans qiymatining bir qismi sifatida tan olish mezonlarini belgilab beradi.

Aktivni tan olish mezonlariga mos keladigan asosiy vosita obyekti tannarx bo’yicha baholanishi lozim. Asosiy vositalar obyektining tannarxi bu tan olish sanasiga ularning pul mablag’laridagi ekvivalentidir. Agar ular uchun to’lovning oddiy tijorat krediti shartlarida sotishga qaraganda muddati kechiktirilgan bo’lib, ular 23-sonli BHXSga muvofiq kapitalizastiya qilinmasa, aktivning pul mablag’laridagi ekvivalenti bilan umumiy to’lov o’rtasidagi farq foiz xarajatlari sifatida kredit davri davomida tan olinadi.

Tadbirkorlik subyekti tannarx bo’yicha hisobga olish modelini yoki qayta baholash modelini o’zining hisob siyosati sifatida qabul qilishi kerak va ushbu siyosatni asosiy vositalarning alohida butun turkumiga nisbatan qo’llashi kerak. Aktiv sifatida tan olinganidan so’ng, asosiy vosita obyekti uning tannarxidan har qanday jamg’arilgan eskirish summasi va har qanday qadrsizlanish bo’yicha yig’ilgan zararlar chegirib tashlangan qiymatda hisobga olinishi kerak.

Aktiv sifatida tan olinganidan so’ng, asosiy vosita obyekti uning tannarxidan har qanday jamg’arilgan eskirish summasi va har qanday qadrsizlanish bo’yicha yig’ilgan zararlar chegirib tashlangan qiymatda hisobga olinishi kerak.

Asosiy vositalarni hisobga olishning zaruriy sharti bo‘lib ularni baholash yagona prinsipi hisoblanadi.

MUHOKAMA

Maqolaning asosiy masalasi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq BHXS 16 standartning qo‘llanilishi va xorijiy investorlarni zarur axborot

muhiti bilan ta’minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirishdan iboratdir. “Asosiy vositalar” (BHXS 16) standartni qo‘llashni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning ishlab chiqish bilan belgilanishi ko‘zda tutilgan.

Maqola mavzusidagi muammolar quyidagilar orqali namoyon bo‘lishi mumkin:

- Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSga uyg‘unlashtirishni hisobga olgan holda ularni takomillashtirish;
- MHXSni joriy etishni hisobga olgan holda normativ -huquqiy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish va takliflar ishlab chiqish;
- Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga javob beradigan buxgalterlarni milliy sertifikatlash tizimini joriy qilish bo‘yicha chora tadbirlar tashkil etish.

XULOSA

BHXS 16-son “Asosiy vositalar” nomli standartining maqsadi moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar tadbirkorlik subyektining asosiy vositalariga qilgan investitsiyalarini va bunday investitsiyalardagi o’zgarishlar haqidagi ma’lumotlarni tushunishi uchun asosiy vositalarni hisobga olish tartibini belgilab berishdan iboratdir.

Asosiy vositalarni hisobga olishda asosiy masalalar bo’lib aktivlarni tan olish, ularning balans qiymatini aniqlash va ular bo’yicha eskirish xarajatlarini va qadrsizlanish bo’yicha zararlarni tan olish hisoblanadi. Ushbu Standart asosiy vositalarni hisobga olishda qo’llanilishi lozim, biroq boshqa Standartlar asosiy vositalarni o’zgacha hisobga olishni talab etgan yoki ruxsat etgan hollari bundan mustasno.

Asosiy vositalarning bir yoki undan ko‘p obyekti nomonetar aktiv yoki aktivlarga almashtirish, yoki monetar va nomonetar aktivlarning guruhiga almashtirish orqali sotib olinishi mumkin. Quyida ko’rib chiqilgan qoidalar bitta nomonetar aktivni boshqa nomonetar aktivga almashtirishga hamda yuqoridagi gapda tavsiflangan barcha almashishlarga nisbatan qo’llaniladi. Bunda asosiy vosita obyektining tannarxi uning haqqoniy qiymatida baholanadi, bundan quyidagi holatlar istisno:

- almashish operatsiya tijorat maqsadlarida foyda olish uchun amalga oshirilayotgan bo’lmasa yoki
- olingan yoki berilgan aktivning haqqoniy qiymati ishonchli tarzda baholana olmasa.

Agar tadbirkorlik subyekti beriladigan aktivni darhol hisobdan chiqara olmasa, olingan aktiv uning haqqoniy qiymatida baholanadi. Agar olingan aktiv haqqoniy qiymatida baholana olmasa, uning tannarxi bo’lib beriladigan aktivning balans qiymati xizmat qiladi. Tadbirkorlik subyekti almashish operatsiyasi tijorat maqsadlariga ega bo’lishini kelgusi pul oqimlari operatsiyaning natijasini qay darajada o’zgartirishi

mumkinligini inobatga olgan holda aniqlaydi. Almashish operatsiyasi tijorat maqsadlariga ega bo'ladi, agar:

- (a) olingan aktiv bo'yicha pul oqimlarining tuzilishi (ya'ni riski, muddati va summasi) berilgan aktiv bo'yicha pul oqimlarining tuzilishidan farq qilsa; yoki
- (b) tadbirkorlik subyektining operatsiya ta'sir qilgan faoliyati qismining tadbirkorlik subyektiga xos bo'lgan qiymati almashish natijasida o'zgarsa; va
- (v) (a) yoki (b) dagi farq almashtiriladigan aktivlarning haqqoniy qiymatiga nisbatan katta bo'lsa.

Almashish operatsiyasi tijorat maqsadlariga ega ekanligini aniqlash uchun, tadbirkorlik subyektining operatsiya ta'sir qilgan faoliyati qismining tadbirkorlik subyektiga xos bo'lgan qiymati soliq solingandan keyingi pul oqimlarini aks ettirishi kerak. Bunday tahlilning natijasi batafsil hisob-kitoblar amalga oshirilmasdan aniq bo'lishi mumkin. Agar haqqoniy qiymatlarning ishonchli baholanishidagi o'zgaruvchanlik ushbu aktiv uchun katta bo'lmasa yoki haqqoniy qiymatni baholashda diapazon ichidagi turli baholangan qiymatlarning ehtimollik darajalari ishonchli tarzda baholanishi va ishlatilishi mumkin bo'lsa, aktivning haqqoniy qiymatini ishonchli tarzda baholash mumkin bo'ladi. Agar tadbirkorlik subyekti olingan yoki berilgan aktivning haqqoniy qiymatini ishonchli tarzda baholay olsa, olingan aktivning tannarxini baholash uchun berilgan aktivning haqqoniy qiymati olinadi, biroq olingan aktivning haqqoniy qiymati aniqroq holda ayon bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Mel'nikov I. "Buxgalterskiy uchet". – Litres 2017. – 406 c.; Sivkov Ye. Sovremenniy buxgalterskiy uchet - 2018. - ISBN-978-5-0404-1038-5;
2. Babaev Yu.A., Petrov A.M. "Buxgalterskiy uchet:: uchebnik. - Prospekt, 2018. - ISBN: 978-5-392-28278-4;
3. M.Bonham. "Generally accepted accounting practice under IFRS". Ernst &Young. USA, 2010.
4. A. Rizaqulov,B.Xasanov, A.Usanov, Z.Mamatov. "Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari". Tarjima. T.: - 2004.
5. Jalolova D. "Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari" - T.: Moliya instituti, 2004. - 25 b.
6. Norbekov D.E., Ochilov I.K. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari" fanidan o'quv - uslubiy majmua, Toshkent -2019,
7. www.ifrs.academy.uz
8. www.mf.uz
9. www.bss.uz
10. www.tfi.uz
11. www.norma.uz
12. www.lex.uz
13. www.buxgalter.uz
14. www.natlib.uz